

TARIXIY MANBALAR VA ILMIY ADABIYOTLARDA QO'NG'IROT ETNOSINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING YORITILISHI

*Normamatov Maqsud Jonuzoq o'g'li,
Kasbi tumani 5-umumta'lim maktabi
Tarix fani o'qituvchisi*

ОСВЕЩЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭТНОСА КУНГРОТ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ И НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Нормаматов Мақсуд Джонузаг оглу,
Средняя школа № 5 Касбийского района
Учитель истории*

COVERAGE OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE KUNGROT ETHNOS IN HISTORICAL SOURCES AND SCIENTIFIC LITERATURE

*Normamatov Maqsud Jonuzaq oglu,
Kasbi district secondary school No. 5
History teacher*



E-mail:
nmaqsud2025@mail.com

<https://orcid.org/0009-0005-0793-2278>

Annotatsiya: Maqolada tarixiy manba va adabiyotlarda qo'ng'irotlar etnosining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va madaniy xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiylik, obyektivlik va manbashunoslik tamoyillari asosida qo'ng'irotlarning o'zbek xalqining etnik tarkibidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: qo'ng'irot, etnos, etnografik guruh, tarixiy manba, o'zbek xalqi, etnik tarix.

Аннотация: В статье научно анализируются происхождение, этапы формирования и культурные особенности этноса кунгрот в исторических источниках и литературе. В исследовании, основанном на принципах историчности, объективности и источниковедения, освещается место кунгров в этнической структуре узбекского народа.

Ключевые слова: кунгрот, этнос, этнографическая группа, исторический источник, узбекский народ, этническая история.

Abstract: The article scientifically analyzes the origin, stages of formation and cultural characteristics of the Kungrot ethnos in historical sources and literature. The study, based on the principles of historicity, objectivity and source studies, highlights the place of Kungrots in the ethnic structure of the Uzbek people.

Key words: Kungrot, ethnos, ethnographic group, historical source, Uzbek people, ethnic history.

Kirish. Kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan boshlab insoniyat tarixini o'rganish masalalari doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Tarixiy haqiqatni anglash, tarixiy jarayonlarga ilmiy asosda va xolislik bilan baho berish, ularni falsafiy hamda mantiqiy tahlil etish inson tafakkurining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tarixni o'rganish faqat voqealar ketma-ketligini

emas, balki ularning mazmun-mohiyatini, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashni ham taqozo etadi.

Etnografik tadqiqotlarda tarixiy haqiqatni bir tomonlama yoritish, ma'lum bir xalq yoki davlat tarixini asossiz ravishda buyuklashtirish ilmiy natijalarning xolisligiga putur yetkazadi. Shuning uchun ham etnoslar tarixini tahlil etishda

obyektivlik, dalillarga tayanish va tarixiy manbalarni tahliliy yondashuv asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining kelib chiqishi va etnik shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrlarni qamrab olgan murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda turli urug' va elatlar faol ishtirok etgan. Shulardan biri — qo'ng'irotlar bo'lib, ularning Markaziy Osiyo mintaqasidagi etnosiyosiy jarayonlarda tutgan o'rni alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Tarixiy manbalarda bu haqda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida (1425-y.) Amir Temurning dastlabki siyosiy faoliyatida qo'ng'irot sulolasi bilan aloqalarni mustahkamlashga intilgani qayd etiladi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" nomli asarida esa Chingizxonning buvisi onasi — Quvoqaroq — qo'ng'irot urug'iga mansub bo'lgani haqida yozilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ham o'z ijodida bir qator turkiy qabilalar qatorida qo'ng'irotlarni tilga olib, ularning o'z davridagi ijtimoiy mavqeini e'tirof etgan.

Demak, tarixiy manbalar va adabiyotlarda qo'ng'irot etnosining nomi, faoliyati hamda ijtimoiy nufuzi muntazam qayd etilib kelgan bo'lib, bu holat ularning o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Mazkur maqolada ana shu tarixiy manbalar tahlili asosida qo'ng'irotlar etnik tarixining yoritilish darajasi ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Qo'ng'irotlar etnosining XV–XVII asrlardagi tarixiga oid ma'lumotlar ko'plab yozma manbalarda uchraydi. Xususan, Muhammad Solihning (taxm. 1455–1535) "Shayboniynoma", Hofiz Tanish Buxoriyning (1549–1589) "Sharafnomayi shohiy", Mahmud ibn Valining (tug'. 1596) "Bahr al-asror fi manoqib ul-ahyor" ("Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi", 1634–1640), Abulg'ozixonning (1603–1664) "Shajarayi turk va mo'g'ul" hamda "Shajarayi tarokima", Mir Muhammad Amin Buxoriyning (tug'. 1645) "Ubaydullanoma", Muhammad Yusuf Munshiy-

ning "Tarixi Muqimxoniy" (1697–1704), Abdurahmon Davlat To'le'ning (XVIII asr 1-yarmi) "Tarixi Abulfayzxon", va Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniyning (1838/39–1914) "Tarixi salotini Mang'itiya" ("Mang'it hukmdorlarining tarixi") kabi asarlari qo'ng'irotlar etnik tarixini o'rganishda muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Mazkur manbalar nafaqat qo'ng'irotlarning siyosiy hayotdagi faolligini, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik jarayonlardagi rolini ham yoritadi. Tadqiqotda tizimli yo'nalishni amalga oshirish asosida o'rganilayotgan mavzuga oid ilmiy nashrlar va adabiyotlar tahlili dissertatsiyaning birinchi bobida keng yoritilgan bo'lib, tarixshunoslik jihatidan ular quyidagi to'rt asosiy davrga bo'lingan:

1. Rossiya imperiyasi davriga oid adabiyotlar — bu davrda qo'ng'irot urug'ining kelib chiqishi, joylashuvi va xo'jalik faoliyatiga oid dastlabki tavsifiy ma'lumotlar keltirilgan;

2. Sovet davri tadqiqotlari — marksistik metodologiya asosida o'rganilgan etnik jarayonlar, ijtimoiy sinf va millatlararo munosabatlar doirasida qo'ng'irotlar faoliyati tahlil qilingan;

3. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar — milliy tarixshunoslikda etnosiyosiy yondashuv kuchayib, qo'ng'irotlar o'zbek xalqining subetnik tarkibidagi muhim komponent sifatida o'rganilgan;

4. Xorijiy tadqiqotlar — asosan turkologiya, etnografiya va manbashunoslik doirasida olib borilgan xalqaro izlanishlardir².

O'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda bu manbalar bilan bir qatorda ko'plab ilmiy tadqiqotlar, etnografik kuzatishlar va arxeologik topilmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, o'zbeklarning yirik subetnoslaridan biri bo'lgan qo'ng'irotlar haqidagi ma'lumotlar turli ilmiy manbalarda "etnografik guruh" yoki "subetnos" sifatida talqin qilingan³. Elshunos olim K.Shoniyozovning ta'kidlashicha: "Etnografik guruh — ma'lum bir etnosning tarkibiy qismi bo'lib, u til lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzining ayrim jihatlari bilan farqlanadi"⁴.

¹ Muhammad Solih. Shayboniynoma. — T.: Fan, 1961.; Hofiz Tanish Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. — T.: Fan, 1991.; Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk va mo'g'ul. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992.

² Tolstov S.P. Drevniy Khorezm. — Moskva: Nauka, 1948.; Bartold V.V. Turkestanskiye issledovaniya. — M., 1963;

Sagdullaev A. O'zbekiston xalqlari etnik tarixi. — T.: O'zbekiston, 2001.

³ Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: Fan, 2001.

⁴ Shoniyozov K. Etnografik guruhlar va ularning etnik xususiyatlari haqida. // Etnologiya masalalari to'plami, T., 1995.

Etnografik guruh odatda bir elatning yoki millatning boshqa xalq bilan aralashib, shu hududda yashab kelishi natijasida shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, o'zbek xalqining tarkibidagi qo'ng'irotlar ana shunday etnografik guruh sifatida ko'riladi.

K. Shoniyozov yana shunday yozadi: "Etnografik guruhdan etnik guruhning farqi shundaki, o'z xalqidan ajralib chiqqan guruh boshqa xalq tarkibiga kirib, uzoq muddat yashab, uning tili, xo'jaligi va urf-odatlarini qabul qilib, unga singib ketadi. Shu bilan birga, o'tmishdagi etnik mansubligini va ba'zi an'analarni saqlab qoladi"⁵.

Qo'ng'irotlar XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o'zbek xalqining tarkibida o'ziga xos lahja, turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini saqlab qolganliklari sababli etnografik guruh sifatida tavsiflanadi. Ammo qozoq, qoraqalpoq, turkman va boshqird xalqlari tarkibida esa ularning etnik belgilarining ko'proq assimilyatsiyalashgani sababli etnik guruh sifatida ko'riladi⁶.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qo'ng'irot etnosining tarixiy shakllanishi va u haqidagi ma'lumotlarning tarixiy manbalarda yoritilish darajasini o'rganishda tarixiy–manbashunoslik, etnografik–tahliliy va qiyosiy–tarixiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy metodologik asosi tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanadi. Tarixiylik tamoyili asosida qo'ng'irot etnosiga oid fakt va dalillar o'z davri kontekstida tahlil qilindi, ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligi aniqlab borildi. Obyektivlik esa har bir tarixiy ma'lumotni daliliy manbalarga tayanib, ilmiy xolislikda yoritishni ta'minladi.

Shuningdek, tadqiqotda manbashunoslik tahlili muhim o'rin egalladi. Muhammad Solihning "*Shayboniynoma*", Hofiz Tanish Buxoriyning "*Sharafnomayi shohiy*", Abulg'azi Bahodirxonning "*Shajarayi turk va mo'g'ul*", Mir Muhammad Amin Buxoriyning "*Ubaydullanoma*", Muhammad Yusuf Munshiyning "*Tarixi Muqimxoniy*" kabi asarlar tarixiy asos sifatida tanlab olindi. Ushbu manbalar yordamida qo'ng'irot

urug'ining XV–XVII asrlardagi siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning boshqa turkiy qabilalar bilan etnik aloqalari o'rganildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'ng'irotlar o'zbek xalqining etnik tarkibida muhim o'rin tutgan yirik subetnoslardan biridir. Tarixiy manbalar — "*Shayboniynoma*", "*Sharafnomayi shohiy*", "*Shajarayi turk va mo'g'ul*" kabi asarlarda qo'ng'irotlar siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarda faol qatnashganligi qayd etilgan. Etnografik va tilshunoslik tahlillari ularning o'ziga xos urf-odatlarini, lahjasi va madaniy qadriyatlarini hozirgacha saqlab kelganini ko'rsatadi. Bu esa qo'ng'irot etnosining tarixiy barqarorligi va madaniy izchilligidan dalolat beradi. Qo'ng'irotlar tarixini manbashunoslik asosida tizimlashtirish va raqamli formatda targ'ib etish. Ularning etnik va madaniy merosini o'zbek xalqining umumiy etnogenetik jarayoni bilan bog'liq holda o'rganish. Hududiy dala tadqiqotlarini kengaytirish va xalqaro qiyosiy tahlillarni amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Solih. *Shayboniynoma*. — T.: Fan, 1961.; Hofiz Tanish Buxoriy. *Sharafnomayi shohiy*. — T.: Fan, 1991.; Abulg'azi Bahodirxon. *Shajarayi turk va mo'g'ul*. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. — Москва: Наука, 1948.; Бартолд В.В. Туркестанские исследования. — М.: 1963.; Sagdullaev A. O'zbekiston xalqlari etnik tarixi. — T.: O'zbekiston, 2001.
3. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: Fan, 2001.
4. Shoniyozov K. Etnografik guruhlar va ularning etnik xususiyatlari haqida. // *Etnologiya masalalari to'plami*, T., 1995.
5. Shoniyozov K. Etnogenez va etnik tarix masalalari. — T.: Fan, 1994.
6. Karimov B., Nazarov N. O'zbek xalqining etnik tarkibi. — Samarqand, 2010.

⁵ Shoniyozov K. Etnogenez va etnik tarix masalalari. — T.: Fan, 1994.

⁶ Karimov B., Nazarov N. O'zbek xalqining etnik tarkibi. — Samarqand, 2010.